

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

S.MAHMUDOVA

“Turg‘unoy Egamberdiyeva – Farg‘onalik ayollarning gultojidir”	6
---	----------

PEDAGOGIKA

X.Kadirov, B.Xamdamov

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati	8
---	---

L.Yo‘Idosheva

Muzeylarda turli xil mashg‘ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	13
---	----

M.Alimjanova

Ta’limning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari	17
--	----

B.Xaydarov

Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
--	----

G.Absalamova

Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiysi tushunchasi.....	28
---	----

F.Mirzayeva

Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
--	----

IQTISODIYOT

T.Xaydarov, B.Karimov

Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi	36
--	----

FALSAFA, SIYOSAT

N.Hakimov, D.Amridinova

Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
---	----

I.Raximov

O‘zbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari	48
---	----

R.Isamutdinov

“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
--	----

S.Xoliqov

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vazifalarining o‘ziga xos jihatlari	57
---	----

ТАРИХ

M.Xurramov

1991 - 2016 yillarda O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlarda Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari	61
---	----

R.Arslonzoda

Istiqlol yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi	69
---	----

I.G‘ulomov, Z.Kasimova

O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatga olish	76
---	----

G.Haydarov

Farg‘ona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi	83
--	----

G.Dadamirzayeva

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Farg‘ona viloyati artellarining faoliyati	88
---	----

A.Aduvali

Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
--	----

N.Komilov

Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o‘rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
--	----

M.Darmonova

“Katta qirg‘in”ning yosh qurboni.....	103
---------------------------------------	-----

L.Sokolova

Farg‘ona vodiysi: ustozga bag‘ishlanish marosimining shakllari	107
--	-----

O.Zaripov

“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi	113
--	-----

**SHOKIR SULAYMON YURT TARAQQIYOTIGA XIZMAT QILGAN TURKISTON
YOSHLARINING FAOL VAKILI**

**ШАКИР СУЛЕЙМАН - АКТИВНЫЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ ТУРКЕСТАНСКОЙ
МОЛОДЕЖИ, ПОСЛУЖИВШИЙ РАЗВИТИЮ СТРАНЫ**

**SHAKIR SULEYMAN IS AN ACTIVE REPRESENTATIVE OF THE TURKESTAN YOUTH
SERVED THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY**

Abduvali Abdumatalibovich Yo'ldashev¹

¹Yo'ldashev Abduvali Abdumatalibovich

– O'zFA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya

Ushbu maqoladan bosh maqsad Sh.Sulaymonning hayot yo'li orgali Turkiston taraqqiyoti uchun qo'shgan hissasini yoritib berishdan iborat. U XX asrning 20-30 yillarida ijtimoiy-madaniy hayot, xususan, o'zbek adabiyotida o'zining barakali ijodi va harakatlari bilan alohida iz qoldirgan. Maqolani yoritishda ilmiy ADABIYOTLAR, manbalar va arxiv hujjatlari jalb qilingan. Qiyoziy taqqoslanib, ma'lumotlar tizimlashtirilgan. Shokir Sulaymonning maqolalari tahlilga tortilgan. U Turkiston yoshlarini xorijiy ta'limi yo'lidagi xayriya yig'ish hamda iqtidorli yoshlarni birlashtirish ishlarida faol ishtirok etdi. Zamon bilan mos ravishda o'zi ham Rossiyaning markaziy shahrida ta'lim oldi. O'zbek ilm-fani rivojiga o'z hissasini qo'shdi. Biroq sovet hukumatining qataq'on siyosati natijasida istibdad qurbaniga aylandi.

Аннотация

Основной целью данной статьи является освещение вклада Ш. Сулеймана в развитие Туркестана на протяжении всей его жизни. Своими богатыми произведениями и действиями он оставил особый след в общественно-культурной жизни 20-30-х годов XX века, в частности, в узбекской литературе. В освещении статьи задействована научная литература, источники и архивные документы. Данные сравниваются и структурируются. Анализируются статьи Шакира Сулеймана. Он принимал активное участие в сборе средств на обучение туркестанской молодежи за рубежом и объединение талантливой молодежи. Он также учился в центральном городе России. Внес вклад в развитие узбекской науки. Однако он стал жертвой репрессий в результате репрессивной политики советского правительства.

Abstract

The main purpose of this article is to highlight the contribution of Sh. Suleiman to the development of Turkestan throughout his life. With his rich works and actions, he left a special mark in the social and cultural life of the 20-30s of the twentieth century, in particular, in Uzbek literature. Scientific literature, sources and archival documents are involved in the coverage of the article. The data is compared and structured. Articles by Shakir Suleiman are analyzed. He took an active part in raising funds for the education of Turkestan youth abroad and the unification of talented youth. He also studied in the central city of Russia. Contributed to the development of Uzbek science. However, he became a victim of repression as a result of the repressive policies of the Soviet government.

Kalit so'zlar: yangi usul maktabi, "Husayniya" madrasasi, "Milliy ittihod" tashkiloti, "Ko'mak" uyushmasi, xorijiy ta'lim, "Qizil qalam" adabiy jamiyat, qataq'on.

Ключевые слова: новометодных школа, [Медресе «Хусаиния»](#), организация «Миллий имтихад», общество «Кумак», литературное общество «Кизил калам», репрессии.

Key words: new method school, Madrasah "Husainia", Milliy Ittihad organization, society "Kumak", literary society "Kizil Kalam", repression.

KIRISH

XX asrning dastlabki choragida Turkistonda ko'plab siyosiy arboblar, madaniyat va san'at namoyondalari, matbuot va maorif yetakchilari, adabiyotshunos olimlar etishib chiqdi. Ular Turkistonni mustamlaka tuzumidan ozod etish, mamlakat taraqqiyoti va kelajagi uchun uzoqni ko'zlagan holda islohotchilik ishlarini amalga oshirdilar. Ushbu ziyorilar qatorida Shokir Sulaymonning ham faoliyati alohida ahamiyatga egadir.

U Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakasining Turkistonda olib borgan siyosatini o'z ko'zi bilan ko'rди. Shu bois ham jadid ziyyolilari safiga qo'shildi. Ular tomonidan tuzulgan jamiyatlar faoliyatida ishtirok etdi. O'z davri uchun zarur ilmlarni egallash uchun Orenburg, Toshkent va Moskva shaharlarda ta'lim oldi. Qisqa umri davomida o'zining ijtimoiy-madaniy faoliyati va ijodi

bilan mamlakatning taraqqiyoti, kelajagi yo'lida xizmat qildi. Milliy mutaxassislar tayyorlash massalasiga katta e'tibor berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotni yoritishda keng turdag'i manbalar jalb etilib, davriylik asosida tahlil qilindi. Shokir Sulaymon faoliyatiga oid yangi hujjatlar ilmiy ite'molga kiritildi. Maqola davomida ayrim ma'lumotlar manbalar va ADABIYOTLAR bilan qiyoslandi. ADABIYOTLAR tahlili shuni ko'rsatadiki, Shokir Sulaymon faoliyati asosan adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan. Sovet hokimiyatining qatag'on siyosatidan so'ng ko'plab ziyolilarning faoliyati ijodi uzoq yillar davomida o'rganilmay qoldi. Mustaqillik yillarda 30-50-yillar siyosiy qatag'on oqibatlarini ochiqlana boshlandi. Ana shu jarayonda Sh. Sulaymon hayoti va faoliyatiga qiziqish uyg'ondi, dastlabki maqolalar yozildi. Uning ayrim hikoyalari e'lon qilindi. Germaniyalik olima Ingeborg Baldauf uning she'riyatitini tahlil qildi. Filolog olim akademik Naim Karimov muallifligidagi "41-yilning sovuq shamoli" nomli maqolada Sh. Sulaymonning hayoti va adabiy faoliyati, qatag'on etilishiga oid ma'lumotlar keng o'rinn oldi. Ammo, Shokir Sulaymonning ijtimoiy-madaniy faoliyati, ijodi haligacha munosib tarzda o'rganilmadi. N. Karimov buning sabablaridan biri sifatida: "shubhasiz, adabiy jamoatchilikning yozuvchi hayoti va ijodidan xabarsizlidigidir", deb yozadi [1].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shokir Sulaymonning tavalludi va ijtimoiy ahvoli haqida arxiv hujjatlarida ham bir qator ma'lumotlar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan Maorif Halq Komissarligi fondi hujjatlarining birida Turkiston mahalliy yoshlarni xorij va Rossiyaning markaziy shaharlaridagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida 1922/1923-o'quv yili uchun yuboriladigan talabalar ro'yxati mavjud. Unga ko'ra, Shokir Sulaymon o'sha vaqtida 22 yoshda bo'lgan. Ro'yxatda uning ijtimoiy holatini dehqon oilasidan, tug'ilgan joyi esa Qo'qon, millati o'zbek deb ko'rsatilgan [2].

U dastlabki ta'llimni Qo'qondagi maktablarda olgan. O'sha vaqtarda jadidchilik harakati Farg'ona vodiysida ham keng yoyilgan bo'lib, qo'qonlik jadid namoyondalari va taraqqiyparvarlarning islohotchilik harakati ko'plab iqtidorli yoshlarning ta'llimga bo'lgan qiziqishini orttirgan. Jadidchilik harakatining mazmun-mohiyatini anglagan holda bir qator yoshlarni zamonaviy ta'llim olish uchun qo'shni mamlakatlar va xorijdagi isloh qilingan madrasalar hamda oliy ta'llim muassasalariga borib o'qiy boshladilar. Vodiylarning bir nechta Orenburgdagi "Husayniya", Ufadagi "Oliya" kabi isloh qilingan madrasalar va Istanbuldagi oliy va o'rta ta'llim muassasalarida ta'llim oldilar. Bu XX asr boshlarida jadid ziyolilari va ma'rifatparvar boylarining Rossiya imperiyasini mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lish hamda Turkiston taraqqiyoti uning kelajagi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, islohotchilik yo'lidagi saby-harakatlaridan biri edi.

1916-yilda Sh. Sulaymon Qo'qondagi ta'llimini tamomlab Orenburg shahrida tashkil etilgan "Husayniya" madrasasiga tahsil olish uchun bordi. Bu madrasa tatar ma'rifatparvarlari, savdogar boy aka-ukalar: Ahmadboy, G'aniboy va Mahmudboy Husainovlar tomonidan tashkil etilgan edi. "Husayniya" madrasasi XIX asr oxirlarida (1891 yil) tashkil etilgan isloh qilingan madrasalardan bo'lgan. Madrasaning 1906-yilda qurilgan uch qavatli yangi binosi o'quv xonalari, kutubxonalar, yotoqxona, oshxona va alohida shifoxonasi mavjud edi. Bino elektr chirog'i va isitish tizimi bilan ta'minlangan. Unda diniy fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy, aniq va tabiiy fanlardan: fizika, ximiya, geometriya, trigonometriya, psixologiya, mantiq, tibbiy bilim, tozalik, siyosiy-iqtisod, savdo-sotiq va buxgalteriya kabi fanlardan ta'llim berilgan. Shuningdek, rus, arab, nemis, fors, frantsuz tillari, tatar, rus, arab, fors adabiyoti, jahon va rus hamda tatar halqi tarixi o'qitilgan [3].

Shokir Sulaymon bilan 1918-yilgacha bo'lgan davrda bu madrasada keyinchalik O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining birinchi raisi bo'lgan Rahmat Majidiy [4] va ma'rifatparvar pedagog Abdurahmon G'oibiy [5] kabi yoshlarni tahsil oldilar. Garchand oktyabr voqealaridan so'ng o'qishni tamomlay olmagan bo'lsalarda, madrasadagi ta'llim ularning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Sh.Sulaymon madrasada tahsil olish bilan birga qo'shni va Evropa mamlakatlardagi taraqqiyotdan xabardor bo'ldi. U ko'plab tillarni o'rgandi. Yangi gazeta va jurnallar bilan tanishdi. Turkistonga qaytgach jadidchilik harakatining faol a'zolari safiga qo'shiladi, ularning islohotchilik faoliyatida ishtirok etadi. Sh.Sulaymon 1918-yil noyabr-dekabr oylarida Turkiston Muxtoriyat hukumati g'oyalalarini Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida targ'ib qilish ishlarida qatnashgan. O'lkadagi milliy hukumat bo'lmish Turkiston Muxtoriyati sovet hokimiyati tomonidan vahshiylarcha

TARIX

bostirilgach, Qo'qondagi ma'rifatparvarlar bilan birga bolsheviklarga qarshi tuzilgan milliy tashkilotlarda faoliyat olib borgan. U "Ittihodi tolibon", "Milliy ittihod" tashkiloti ishlarda ishtirok etgan. 1919 yilda "Milliy ittihod" tashkiloti yig'ilishlarida qo'qonlik yoshlarni kelajakda Germaniyaga o'qishga yuborish uchun nemis tilini o'rganish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish, ayrim yoshlarni esa Bokudagi dorulfununlarga yuborish haqida qaror qabul qilingan. Shunday qarorlarning natijasi bo'lsa kerak, Sh.Sulaymonning o'zi ham 1920-yili Toshkentga kelib, o'lka maorif institutiga o'qishga kiradi [1]. Shu yillarda Turkiston mahalliy ziyolilari va iqtidorli yoshlari tashabbusi bilan tuzilgan "Ko'mak" uyushmasi (1922-yil 2-may)ga a'zo bo'lib kiradi.

"Ko'mak" jamiyatning sa'y-harakati bilan to'plangan mablag'lar hisobiga 1922/1923-o'quv yili uchun xorijda ta'lif olish istagidagi Turkistonning turli huddudlarida yashovchi iqtidorli yoshlardan arizalar qabul qilina boshlandi. Uyushma tomonidan yoshlarni chet elda o'qitish Rossiya, Ozarbayjon va Germaniyaning markaziy shaharlariga yo'naltirildi. "Ko'mak" uyushmasining markaziy boshqaruvi Toshkent shahrida joylashgan bo'lib, Turkistonning turli hududlarida jamiyatning bo'limgari ham faoliyat olib borgan. Farg'ona viloyatining Andijon, Namangan, O'sh, Qo'qon kabi shaharlarida jamiyatning bo'limgari tuzilib yig'ilgan xayriya mablag'lari "Ko'mak"ning markaziy idorasiga yuborib turilgan. Farg'ona viloyatidagi uyushmaning xayriya yig'ish ishlarda Shokir Sulaymon etakchilik qilib, iqtidorli talabalarni to'plash va ko'mak yig'ish ishlarda faol ishtirok etdi. 1922-yil 27-iyuldaggi Maorif Halq Komisarligining ruxsatnomasida Sulaymonov, Sodiqov va Zokirovlar nomlari qayd etilib, ular Farg'ona viloyati komissiyasining a'zolari sifatida ixtiyoriy jamg'arma yig'ish uchun yuborilgan. Yana bir arxiv hujjatida Farg'ona viloyati Halq ta'lifi bo'limga talabalarning keyingi o'qishlarini davom ettirish uchun "Ko'mak" uyushmasining viloyatdagi bo'limgaridan xayriya yordamlari va pul mablag'larini markaziy uyushmaning vakili A. Sodiqovga yig'ishda amaliy yordan so'ralgan [6].

Shokir Sulaymon xorijga ketayotgan talabalar uchun mablag' yig'ish komissiyasi a'zosida sifatida Maorif Halq Komisarlar sovetiga qarashli bo'lim tomonidan berilgan shahodatnomaga asosan Xo'jakent uezdining O'ratega shahriga borib ko'mak yig'ish ishlarini ham amalga oshirgan. U tomonidan yuborilgan markaziy "Ko'mak" uyushmasiga kelgan 1922-yil 13-avgustdagi 312-sonli telegrammada yozilishicha O'rategadan katta miqdorda iona (xayriya yordami) qabul qilingan. Shuningdek, aholi tomonidan berilgan turli mahsulotlar hisoboti bilan yuborilganligi ma'lum qilinadi [7]. Yana bir ma'lumotda Farg'ona komissiyasi qo'lida katta miqdorda xayriya yordami to'plangan. O'sha paytda Farg'onada hukm surgan ochlik va qurolli qarshilik harakati hamda qizil askarlar to'qnashuvlari kabi notinchliklar sababli yaqin kunlarda markaziy "Ko'mak" idorasiga yetkazilishi ma'lum qilinadi [8]. "Ko'mak" uyushmasining a'zolaridan bo'lgan To'lagan Mo'minning bergen ma'lumotlariga ko'ra, uyushmaning Farg'ona bo'limi olib borgan xayriya yig'ish ishlari natijasida 674 440 so'm yig'ilgan bo'lib, shundan 315 325 so'mi uyushmaning xarajatlari uchun ishlataligan. Markaziy uyushma uchun yuboriladigan sof qismi 357 115 so'm ekanligi yozilgan [9].

Shokir Sulaymon Farg'ona viloyatida amalga oshirilgan ana shu xayriya yig'ish ishlarida faol etakchilar qatorida ish olib bordi. Turkiston yoshlarining rivojlangan mamlakatlar ilm-fani, yangi texnika va texnologiyalaridan xabardor bo'lishlari va uni o'lkada tatbiq etishlariga katta umid bilan qaradi. Shuning uchun ham u ko'mak yig'ish ishlari bilan birga Farg'ona vodisidan iqtidorli yoshlarni to'plab va ularni saralash ishlarida ham ishtirok etdi.

Shuningdek, Shokir Sulaymonov Turkiston milliy matbuotida yoshlarning xorijda ta'lif olish masalasi va ko'plab adabiy mavzulardagi maqolalari hamda o'zining she'rlari bilan ishtirok etadi [10]. "Ovrupoda Turkiston o'kuvchilari" nomli Turkiston gazetasining 1923-yil 1-yanvar sonidagi maqolasida Sh. Sulaymon zamonaliv ta'lif olish istagida ketgan yoshlar va ularning ta'lif olish yo'lida Turkiston ahlini yordamga chorlaydi. U maqolaning kirish qismida: "So'nggi kunlarda yurtni idora qilarliq siyosi, ilmiy, faniy muqtedadir kuchlarimizning yo'qlig'i ochiq va qattig' sezildi. Zamonimiz Turkistondan o'zini o'zi idora qila olaturg'on ustalar talab qila boshladi.

Mana shul hollarni ko'rgan Turkiston yoshlari borliq hayotimiz, najotimiz maorifda, maorif ham Ovrupoda ekanligini bilib, Ovrupo sari og'ila boshladilar. Natijada, Qafqoz Bokuda 50 lab, Maskov Peterburg'da 150 lab, Berlinda 70 lab, butun Ovrupoda borlig'i 270 ga yaqin Turkiston o'quvchilarni ko'ramiz. Bu ko'rinish har holda Turkistonning kelgusini porloq, tarixining jonliq

ekanligini bildiradir. Unday bo'lsada bir oz umid bog'latadi. Biroq, hayhotki bu sonlar boshqalarg'a qaraganda yo'q darajasidadir" - deya ta'kidlab o'tadi [11].

Rossiyaning markaziy shaharlarida o'qiyotgan Turkiston yoshlariga to'xtalib: "Maskovdag'i hisobsiz oliy, o'rta maktablarda o'quvchi shogirdlar orasida turkistonlilar dengizdan bir tomchi qabilidadir. Bular hammasi boshqa millatlarning shogirdlari bilan to'liq. O'tgan yil Turkiston o'quvchilari Maskovda yolg'iz 10 ta bo'lg'onlari holda, bu yil Peterburg', Maskov o'quv yurtlarida 100 kishilik istipendiya ochilib, yaxshig'ina ta'min etilganlar" - deb yozadi [11].

Shu bilan birga maqola yakunida Sh.Sulaymon Turkiston halqini xorijda o'qiyotgan millat yoshlarini qo'llab-quvvatlashga chorlaydi. "Chetda o'quvchi bolalarini yo'qlab turg'on boshqa millatlar kabi bizning Turkiston ziyorilari, maorifparvarlari ham o'zlarining "jiyda xaltalari" bilan chetdagi o'quvchilarini yo'qlasalar, yordam etsalar yaxshi bo'lur edi. Yurti, elidan uzoq turg'on o'quvchilar Turkistondan shuni kutarlar. Shunday bo'lsa, stipendiyasiz turg'on yuzlab o'quvchilarimizga bir oz madad bo'lur edi. Yurtidagi kamchiliklarni ko'rib, yuragi achinaturg'on yoshlarimizning kundan-kun, yildan-yilga ko'payishi lozimdir" [11].

Shokir Sulaymon Turkiston yoshlarini zamonaviy ta'limga olish yo'lida "Ko'mak" uyushmasida ko'p xizmat qildi. O'zi ham Rossiyaning markaziy shaharlarida o'qishni istadi. 1922/1923-o'quv yilida Moskva va Petrburgda ta'limga olish uchun yuborilgan talabalar ro'yxatida uning nomi uchraydi [12]. Ko'pchilik ro'yxatlarda uni Petrogradga, boshqa hujjalarda Moskva shahri ko'rsatilgan. U bilan birga Ro'ziev Shereli, Saidov Naim, Quvvatov Xadiya kabi qo'qonlik, namanganlik Mirxojanov Sobir, Samarqanddan Abdujabbarov Abdurashit, Xaqberdiev Abdurashid, Toshkentdan Kalonov Yusuf, Mirsoatov Mirza, Rahimov Shoqosim kabi yoshlarning nomlari ushbu ro'yxatga kiritilgan[13]. Petrograd va Moskvaga ketuvchi talabalarga berilgan "ruxsatnomalar" haqidagi ro'yxatda Shokir Sulaymonovning yo'naliishi Petrogradga qilib ko'rsatilgan va bu ro'yxatni talabalar o'z imzolari bilan tasdiqlagan. Unga ko'ra Sh.Sulaymonga №7898 raqamlı ruxsatnomalar (udostoverenie) va №7914 raqamlı guvohnoma (svidetelstvo) berilgan.

Naim Karimovning yozishicha, Shokir Sulaymon dastlab Moskvadagi ishchilar uchun ochilgan fakultetlarning birida, keyin pedagogika institutida tahsil ko'rgan. Turkistonning Moskvadagi vakolatxonasi ulardan xabardor bo'lib turgan. Saidahmad Nazirov, Qamchinbek, Botu singari Moskvaga biroz avval ta'limga olishga borgan yoshlar esa ularning moddiy ta'minoti uchun javobgar bo'lganlar. Botuga, bundan tashqari, Moskvaga o'qishga kelgan yoshlar guruhi bilan Berlindagi gurujni o'zaro bog'lab turish vazifasi ham topshirilgan. Shu orqali Moskva talabalari Berlindagi talabalar hayotidan yaxshi xabardor bo'lganlar[1].

Sh.Sulaymon 1924-1926-yillarda Moskvada N.Krupskaya nomidagi pedagogika akademiyasida o'qidi. Turkistonga qaytgach, 1926 yilda Samarqandagi maktablardan birida o'zbek tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan. U 1927-1941-yillarda "Maorif va o'qituvchi" hamda "Er yuzi" jurnallarida mas'ul kotib, O'zbek Davlat universitetida assistent, dotsent, O'zbekiston Davlat nashriyotida muharrir hamda Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim bo'lib ishladi. U O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va uyushmaning Samarqand viloyat bo'limini tashkil etishda faol qatnashgan.

Shuningdek, Shokir Sulaymon 1926-yilning avgust oyidan Samarqandda tashkil etilgan "Qizil qalam" adabiy jamiyatining raisi sifatida faoliyat olib bordi. Bu adabiy jamiyatda Otajon Hoshim, Botu (Mahmud Hodiyev), Ziyo Said, Sotti Husayn, Anqaboy Xudayqulov, Oltoy (Bois Qoriev) bilan birga o'z davrining yosh kuchlari bo'lmish Uyg'un (Rahmatulla Otaqo'ziev), Hamid Olimjon, Mirtemir Tursunov singari yosh qalamkashlar ham bor edi. O'sha yilning oxirlarida jamiyatning Farg'ona va Namangan viloyat bo'limlari ham tashkil etilgan. Buday tashkilotlar o'z nomidan ma'lumki sovet tuzumiga xayrixoh ijodkor yoshlarni o'z atrofiga to'plashi va ularni tarbiyalashi maqsadida tuzilgan edi. "Qizil qalam" adabiy jamiyatining etakchi a'zolari millatning o'tmishi, kelajagi, urf-odat, an'analariga e'tiborli ziyorilar bo'lib, o'z ijodlarida ushbu masalalarni nazardan chetda qoldirmaganlar. Jamiyatning katta avlod vakillari va yosh avlodning dunyoqarashlari farqlangani uchun jamiyat yig'ilishlarida o'zaro qizg'in bahs va munozaralar, ziddiyatlar tez-tez bo'lib turgan. Sovet mafkurasining ta'siri, kuchli nazorati, jamiyat ichidagi buzg'unchilik fitnalarning sun'iy ravishda tashkil etish, ma'rifatparvarlarning "ziyoli" va "ziyonli" qilib bir-biriga qarshi qo'yish qizil imperiyaga xos bo'lgan ayirmachilik xususiyatlardan edi. Buning natijasida ko'p ijod ahli ana shunday kelishmovchiliklar natijasida jamiyatdan ketishga majbur

TARIX

bo'lgan. Sh. Sulaymon "Qizil qalam" adabiy jamiyatida 1929-yilgacha faoliyat olib bordi. Kelishmovchiliklar hattoki uni "Maorif va o'qituvchi" jurnali tahririyatidan ishdan olinishiga ham sabab bo'lgan [1].

Sovet hukumatida 20-yillarning oxirlaridan avj ola boshlagan qatag'on siyosati "Qizil qalam" adabiy jamiyatni va maorif, madaniyat sohasida faoliyat olib borayotgan ziylolarni o'z domiga tortdi. Shokir Sulaymon ham bu qatag'on siyosatidan chetda qolmadi. 1941-yil 27-avgustda "Ittihodi tolison" (1918-1919), "Milliy ittihod" (1919-1922) aksilinqilobiy tashkilotlariga a'zo bo'lganlik va millatchilikda ayblanib qamoqqa olindi. 1942-yil 8-avgustda o'zi bilan birga qamoqqa olingan adabiyotshunos Sotti Husayn, shoir va jurnalist Yunus Latif hamda geograf olim Sharif Obidov bilan birga otib tashlandi. Uning Toshkentdagi hovlisi va mol-mulkari musodara etilib oilasi ko'chaga chiqarildi. "Halq dushmani" tamg'asi Sh. Sulaymonning ukalari Yahyo va Qodirga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ko'p qiyinchiliklarni, xo'rliklarni boshdan kechirdilar. 1956 yildan boshlab qatag'on qilingan bir qancha shaxslar ishlari qayta ko'rilib, ularni oqlana boshlagach, Shokir Sulaymonov ham 1956-yil 17-sentyabrda oqlangan [14].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Shokir Sulaymon yozuvchi, adabiyotshunos va pedagog bo'lishi bilan birga mamlakat taraqqiyoti, uning kelajagi uchun kurashgan, yosh avlodni ta'lrim tarbiyasi, Turkiston o'lkasining rivojlangan mamlakat darajasiga ko'tarish, uni zamonaviy dunyoviy ta'limdan xabardor mahalliy kadrlar bilan taminlash hamda rivojlantirish yo'lida kurashgan jonkuyar inson sifatida ham o'ziga xos o'ringa ega. Uning hayoti va faoliyati uzoq yillar davomida e'tibordan chetda qoldi. Bugungi kunda ma'rifatparvar ziyyolilar faoliyati va ularning ilmiy-adabiy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Shu o'rinda Sh. Sulaymonning ilmiy merosini o'rganish ham kelajak avlodni tariyalashda katta ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov N. 41-yillarning sovuq shamoli // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2004 yil. 33-son. (Karimov N. The cold wind of 41 years // Literature and art of Uzbekistan. 2004. No. 33.)
2. O'zbekiston Milliy arxivi, R-34-fond, 1-ro'yxat, 1380-yig'majild, 164-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-34, List 1, Collection 1380, page 164.)
3. Ислам на территории бывшей Российской империи: Энциклопедический словарь. Том-1. Ред. С.М. Прозоров. Москва: Восточная литература, РАН. 2006. – С. 430. (Islam on the territory of the former Russian Empire: Encyclopedic Dictionary. Volume-1. Ed. CM. Prozorov. Moscow: Oriental Literature, RAS. 2006. - C. 430.)
4. Karimov N. Uyushmaning birinchi raisi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2006 yil 25 avgust. (Karimov N. The first chairman of the association // Literature and art of Uzbekistan. August 25, 2006.)
5. G'oyipov T. O'z yurtiga begona. Toshkent: Yozuvchi, 1998. – bet 6-7. (Goyipov T. A stranger to his country. Tashkent: Writer, 1998. - pages 6-7.)
6. O'z MA, R-34-fond, 1-ro'yxat, 1332-yig'majild, 20-21-varaqlar. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-34 Fund, List 1, Collection 1332, pages 20-21.)
7. O'z MA, R-34-fond, 1-ro'yxat, 1380-yig'majild, 454-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-34 Fund, List 1, Collection 1380, pages 454)
8. O'z MA, 34-fond, 1-ro'yxat, 1380-yig'majild, 493-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-34 Fund, List 1, Collection 1380, pages 493)
9. O'z MA, 34-fond, 1-ro'yxat, 1380-yig'majild, 490-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-34 Fund, List 1, Collection 1380, pages 90)
10. Shokir Sulaymon. Maskavdan xat. Maskavda adabiyot to'garagi // Turkiston. 1922 yil, 23 dekabr; O'zbek adabiyotining hozirgi holini ruslar kanday kechirgan? // Qizil bayroq. 1922 yil, 5, 7 may; Ovrupoda Turkiston o'kuvchilari // Turkiston. 1923 yil, 1 yanvar; O'qug'uchi tovushi. She'r // Turkiston. 1923 yil, 21 yanvar; Ko'ngil dardlari. She'r // Turkiston. 1923 yil, 15 iyul; Butun o'zbek adib va shoirlariga! // Qizil O'zbekiston. 1926 yil, 8 dekabr. (Shokir Sulaymon. Letter from Moscow. Literary Circle in Moscow // Turkistan. December 23, 1922; How did the Russians feel about the current state of Uzbek literature? // Red flag. May 5, 7, 1922; Turkistan students in Europe // Turkistan. January 1, 1923; Student voice. // Turkiston. January 21, 1923; Mental disorders. // Turkiston. July 15, 1923; To all Uzbek writers and poets! // Red Uzbekistan. December 8, 1926.)
11. Shokir Sulaymon. Ovrupoda Turkiston o'kuvchilari // "Turkiston" gazetasi. 1923 yil 1 yanvar. (Shokir Sulaymon. Turkistan students in Europe // Turkiston newspaper. January 1, 1923.)
12. O'z MA, 34-fond, 1-ro'yxat, 1380-yig'majild, 162, 164, 166, 169- varaqlar. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-34 Fund, List 1, Collection 1380, pages 162, 164, 166, 169.)
13. O'z MA, 34-fond, 1-ro'yxat, 1380-yig'majild, 166, 169-varaqlar. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-34 Fund, List 1, Collection 1380, pages 166, 169.)
14. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. 10-jild. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, - Toshkent. 2005. – bet 94. (National Encyclopedia of Uzbekistan. Volume 10 State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan", - Tashkent. 2005. - page 94.)

(Taqrizchi: B.Usmanov-tarix fanlari doktori, dotsent)